

SIYOSIY JARAYONLAR VA ULARNING SUBYEKTLARI

Xasanova Shukrona Sherzodbek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Har qanday siyosiy tizim, boshqaruv mavjud bo'lgan jamiyatda yuz berishi muqarrar bo'lgan siyosiy jarayonlarning xarakteri, xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada siyosiy jarayonlarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda uning subyektlari borasida ham so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy jarayon, subyekt, siyosiy tizim, demokratik va nodemokratik jamiyat, avtoritar tuzum, qonunchilik.*

Siyosiy jarayonlar har qanday jamiyatning integral qismidir, chunki ularda qaror qabul qilish, qonunlar amalga oshirilishi, siyosatning amalda qo'llanilishi o'z aksini topadi. Siyosiy jarayonlar ma'lum maqsad yoki mazmun, shuningdek mavjud tuzumga qarab turlicha bo'lishi mumkin, lekin subyektlar yoki institutlar bir biridan deyarli farq qilmaydi.

Siyosiy jarayonlarning markazida fuqarolar turadi. Bu fuqarolar ma'lum siyosiy jamoalarning a'zolari bo'lib, ushbu jamoada ular o'z huquqlari va manfaatlarini tufayli birlashgan. Fuqarolar siyosiy jarayonlarning subyektlaridan biri bo'lib, saylov va referendumda ovoz berish, turli namoyishlarda ishtirok etish orqali o'z manfaatlarini ifoda etadilar, jarayon qatnashchisi bo'ladilar.

Qonuniy keng vakolatlar, nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan boshqaruv organlari yoki institutlar ham subyekt rolini bajaradi. Ular kuchli hokimiyatga ega va qabul qilingan qarorlari fuqarolarning hayot tarziga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Bunday institutlar yoki shaxslar guruhlarini o'z nomidan yoki a'zolari tomonidan ma'lum siyosat yuritish yoki muammolarni hal qilish vazifasini bajaradi, ularning manfaatini ifoda etadi.

Turli huquqni muhofaza qilish organlari yoki sanoat assotsiatsiyalari kabi subyektlar ham muhim o'ringa ega. Ularning qo'llab-quvvatlovchi va resurslarni mobilizatsiyalashga qaratilgan faoliyatlari hukumat amalga oshiradigan siyosatga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, chet mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat aktorlar ham siyosiy jarayonlarni shakllantirishda o'z hissasiga ega. Undan tashqari, ommaviy axborot vositalari, media platformalari ham siyosiy jarayon subyektlari qatoriga kiradi, chunki ular jamiyat fikrini shakllantirish va hukumatga nisbatan tanqidiy munosabat doirasini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlar murakkab va dinamik bo'lib, bir tizimdagi siyosiy jarayon boshqa birinikidan farq qilishi mumkin. Demokratik tuzumdagi jamiyatlarda siyosiy jarayonlar odatda fuqarolarning erkin ishtiroki imkoniga ega bo'ladi. Demokratik tuzumga xos bo'lgan saylov jarayonlarida fuqarolar o'z vakillarini saylaydilar va bu

vakillar keyinchalik jamiyat nomidan qarorlar qabul qiladilar, siyosiy jarayonda doimiy kompaniyalar, qonunchilik va hukumat boshqaruvining doirasini shakllantiradi.

Nodemokratik yoki avtoritar jamiyatlarda siyosiy jarayonlar ko'proq markazlashtirilgan bo'ladi va bitta partiya yoki rahbar tomonidan nazorat qilinadi. Ya'ni fuqarolar, jamiyat tashkilotlari va medianing siyosiy qarorlarga ta'siri cheklanadi, hukumat uchun esa jamiyat fikri muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi. Fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki cheklanadi yoki faqatgina ma'lum imkoniyatga ega bo'lgan aholi qatlamigina rejalashtirilgan yoki davlat tomonidan tashkil etilib, nazorat qilinadigan jarayonlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Siyosiy jarayonlarga tarixiy voqealar, iqtisodiy holat va xalqaro munosabatlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, urush yoki anneksiya jarayonini boshqan kechirgan mamlakatlarda siyosiy jarayonlar xarakter jihatidan yo ijobiy yoki salbiy kayfiyatda kechishi mumkin. Davlatning oldingi tuzumi, ya'ni siyosatida transformatsiya amalga oshirilgan davlatlarda oldingi tuzumning qoldoqlari aks etishi mumkin.

Umuman olganda, siyosiy jarayonlar har qanday jamiyatning muhim va ajralmas qismidir. Ularni ko'p tomonlama tushunish uchun bu jarayonlarga qatnashgan turli subyektlarning o'zaro munosabatlari va ta'siri haqida tushunish muhimdir. Fuqarolar, hukumat, siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar, xalqaro va nodavlat tashkilotlari, media siyosiy jarayonlarning asosiy tashabbuskorlari va ishtirokchilari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/siyosiy_jarayon
- 2.<https://milliycha.uz/siyosiy-jarayon-subyektlari/>
- 3.<https://themeformen.ru/uz/about-the-disease/osnovnye-tipy-politicheskogo-processa-ponyatie-politicheskii/>
- 4.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/siyosatshunoslik/siyosiy-jarayon>
- 5.<https://study.com/academy/topic/political-processes-in-the-us.html>